



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING ILK DAVRIDA JIZZAX VILOYATI MUZEYLARI: SHAKILLANISHI VA TARAQQIYOTI

Normurodova Farangiz Xolmurodovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada muzey tushunchasi, muzeylar faoliyati, Jizzax viloyatida muzey ishining vujudga kelishi hamda rivojlanish tarixi, mustaqillikning dastlabki davrida hududdagi muzeylar faoliyati, muzeylar faoliyati rivojiga doir qonun hujjatlari haqidagi ma'lumotlar arxiv manbalari asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: muzey, eksponat, fond, ko'rgazma, Zomin, Forish, farmon, Sharof Rashidov, O'zbekturizm.

МУЗЕИ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ В НАЧАЛЬНЫЙ ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ: ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ

Нормуродова Фарангиз Холмуродовна

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье рассматриваются концепция музея, деятельность музеев и история Джизака. В книге, основанной на архивных источниках, освещается история возникновения и развития музейного дела в регионе, деятельность музеев региона в ранний период независимости, а также информация о законодательных документах, касающихся развития музейной деятельности на основе архивных источников..

Ключевые слова: музей, экспонат, фонд, выставка, Зомин, Фориш, указ, Шароф Рашидов, Узбектуризм.

MUSEUMS OF JIZZAKH REGION IN THE INITIAL PERIOD OF INDEPENDENCE: FORMATION AND DEVELOPMENT

Normurodova Farangiz Kholmurodovna

Jizzakh State Pedagogical University, Doctoral student

Abstract

This article provides information on the concept of a museum, the activities of museums, the history of the emergence and development of museum work in the Jizzakh region, the activities of museums in the region in the early period of independence, and legislative documents on the development of museum activities based on archival sources.

Keywords: museum, exhibit, fund, exhibition, Zomin, Forish, decree, Sharof Rashidov, Uzbektourism.

Muzeylar o'tmishning sirli xilqatlarini o'zida namoyon qiluvchi, ajdodlarning ma'naviy merosini avlodlarga yetkazib beruvchi maskanlardir. Muzeylar ilk tashkil topgan davrlaridan boshlab xalqlar ma'naviyatini, san'atini o'zida namoyon qilib, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish hamda birlashtirish vazifasini bajarib kelgan. Har bir millat, avvalo, o'z xalqining tarixini, ma'naviyatini, azaldan shakllangan san'at turlarini, ajdodlarining yaratuvchanlik salohiyatini bilishga harakat qiladi va bunga intiladi. Bunda ularga ajdodlar tarixini o'zida namoyon qiluvchi muzeylar bilvosita asqotadi. Muzeylar nafaqat xalqlar tarixini namoyon qilish, balki yoshlarda ota-bobolarning yaratuvchanlik jihatlaridan g'ururlanish, Vatanga muhabbat va sadoqat hissini kuchaytirish hamda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, muzeylar xalqlarning yashash tarzi, tafakkur salohiyati hamda ma'naviyatini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham har bir xalq o'z tarixini aholiga namoyon qilishda muzeylardan foydalanadi. Jumladan, Jizzax vohasida ham ajdodlar merosini o'zida mujassam etgan muzeylar talaygina. Xususan, bugungi kunda Jizzax hududida Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi, Zomin tumani "Tarix" muzeyi, Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi, Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi, Mirzacho'l tumani o'lkashunoslik muzeyi hamda Forish tumani o'lkashunoslik muzeylari faoliyat yuritmoqda. Bu muzeylardan asosiysi Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi bo'lib, qolganlari uning bo'limlari

sifatida faoliyat olib bormoqda.

Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 1986-yil 10-sentyabrdagi 465-sonli qarori asosida tashkil etilgan bo'lib, dastlab Jizzax viloyati o'lkashunoslik muzeyi sifatida faoliyatini boshlagan. O'sha vaqtda muzeyda 4 ta bo'lim va bo'limlarda 65 ta eksponat mavjud bo'lgan [1].

1994-yilga kelib, viloyat o'lkashunoslik muzeyida 6 ta bo'lim o'z faoliyatini olib borgan. Ular viloyatimizning va shahrimizning turli joylarida joylashgan bo'lib, mazkur muzey xodimlari davr talabidan kelib chiqib muzey eksponatlarini yanada boyitish hamda Jizzax tarixini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida viloyatimiz hududlariga borib, keksa avloddan aniq ma'lumotlar olish va eksponatlarni yig'ib olib kelish orqali muzey fondini boyitib borgan [2; 1-b.]. Bu eksponatlar esa aholi ma'naviyatining yanada oshishiga xizmat qila boshlagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi 975-sonli qaroriga asosan viloyat o'lkashunoslik muzeyi tugatilib, uning o'rniga Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi tashkil etildi [3]. Natijada muzey faoliyati yanada kengayib, muzey fondida saqlanayotgan eksponatlar soni ham oshirildi, muzeyga tashrif buyuruvchilar safi ham kengayib bordi.

Bugungi kunda Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan umumiy eksponatlar soni 26505 tani tashkil etib, ulardan 17451 tasi asosiy fondga, 9054 tasi yordamchi fondga, 2990 ta eksponat esa ko'rgazmadan joy olgan. Muzey xodimlari aholining Vatanimiz tarixi, boy madaniy merosimiz haqidagi bilimni boyitish, muassasa faoliyatini targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirib, turli muassasa, tashkilotlar va mahallalarda ko'rgazmalar olib bormoqda [4; 15-b].

Jizzax viloyati hokimining 1992-yil 7-maydagi "Sharof Rashidov muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi 127-sonli farmoni Jizzax shahrida buyuk davlat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov muzeyining tashkil etilishiga asos bo'ldi. Shuningdek, farmon asosida Jizzax viloyatida faoliyat olib borayotgan muzeylar faoliyatini kengaytirish hamda yaxshilash bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Jizzax shahrida qurilgan tarixiy bino madaniy yodgorlik sifatida qayta ta'mirlanib, viloyat o'lkashunoslik muzeyi ixtiyoriga berilishi va muzeyga ajratilgan bu binoni to'liq ta'mirlash ishlari Respublika madaniyat ishlari mablag'lari asosida amalga oshirilishi belgilab berildi. Bu kabi amaliy ishlar o'lkashunoslik muzeyi faoliyatining yanada kengayib, yaxshilanishiga olib keldi [5; 291-b].

Jizzax viloyati hokimining 1992-yil 7-oktyabrdagi "Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi qurilishi va jihozlanishini yaxshilash haqida"gi 366-sonli farmoni muzey faoliyatini tashkil etish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qildi. Farmonga muvofiq, yangi tashkil etilayotgan Sharof Rashidov muzeyini zarur texnik vositalar va jihozlarni bilan ta'minlash, muzey eksponatlarini boyitish maqsadida aholi qo'lida mavjud bo'lgan eksponatlarni sotib olish uchun o'lkashunoslik muzeyiga 250 ming so'm mablag' ajratish, muzeyga har xil jihozlarni savdo tashkilotlaridan olish uchun mablag' ajratish kabilar belgilab berildi [6; 73-b]. Natijada muzey o'z faoliyatini boshlab, aholiga xizmat ko'rsata boshladi.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida barcha sohalarni rivojlantirishga e'tibor kuchaygani singari, muzeylar faoliyatini tashkil etish masalalari ham jadallik bilan olib borildi. Respublikamizning barcha hududlarida bo'lgani singari, Jizzax viloyatida joylashgan muzeylar ham takomillashtirilib, faoliyati kengaytirib borildi. Bu borada Jizzax viloyati hokimligining farmonlari asos bo'lib, hududda ko'plab muzeylar tashkil etildi. Xususan, viloyat hokimining 1993-yil 7-sentyabrdagi 350-sonli "Viloyat o'lkashunoslik muzeyida san'at bo'limi uchun qo'shimcha bino qurilishi va boshqa muzeylarning ta'mirlanishi haqida"gi farmoni ham muzeylarga berilayotgan e'tibor samarasi bo'ldi. Farmonga muvofiq, o'lkashunoslik muzeyi huzurida tashkil etilgan san'at bo'limi uchun qo'shimcha bino qurish, Sharof Rashidov nomli yodgorlik muzeyining tom qismini ta'mirlash, viloyat moliya boshqarmasi tomonidan o'lkashunoslik muzeyining san'at bo'limini qurish uchun hamda Sharof Rashidov muzeyining tom qismini ta'mirlash uchun mablag' ajratish [7; 95-b] kabilar belgilab berildi. Bu kabi amaliy ishlar muzeylar faoliyatining yanada rivojlanishiga xizmat qildi.

Shuningdek, viloyat hokimining 1993-yil noyabrdagi 390-sonli "Viloyat o'lkashunoslik muzeyi huzurida Zomin tumani tarixiy muzeyi bo'limini tashkil etish to'g'risida"gi farmoniga asosan Jizzax viloyatida yana bir muzey — Zomin tumani qadim tarixini o'rganish va uni avlodlarga yetkazishga xizmat qiluvchi viloyat o'lkashunoslik muzeyi huzurida Zomin tarixi muzeyi tashkil etildi. Zomin tumani tarixi muzeyi uchun ajratilgan binoni ta'mirlash hamda jihozlash ishlariga loyiha asosida moliya boshqarmasidan mablag' ajratilib, viloyat madaniyat ishlari boshqarmasi hamda o'lkashunoslik muzeyi rahbari Z.X. Shermatovning yordami asosida Zomin tarixi muzeyini tashkil etish, eksponatlar yig'ish va jihozlash ishlari

amalg oshirildi [8; 26-b]. Bu muzeyning tashkil etilishi Zomin tumani tarixining yoritilishiga asos bo'ldi.

Zomin tumani o'lkashunoslik muzeyining ko'rgazma maydoni 100 m² bo'lib, muzey arxeologiya, etnografiya, tasviriy san'at, numizmatika, kandakorlik va Zomin tumani tarixi bo'limlaridan iborat. Bugungi kunda muzey fondidagi umumiy eksponatlar soni 4564 tani tashkil etib, ulardan asosiy fondga 2944 ta, yordamchi fondga 1620 ta eksponat saqlanmoqda. Muzey ilmiy muassasa maqomida o'lka tabiati va tarixini o'rganish, tabiat haqidagi ilmiy bilimlarni targ'ib qilish, o'lkaning tabiiy resurslaridan namunalarni yig'ish hamda aholini hudud tarixi bilan tanishtirish kabi faoliyat turlarini olib bormoqda [9; 15–16-b].

Jizzax viloyati hokimining 1994-yil 28-iyuldagi "Viloyat o'lkashunoslik muzeyining Forish tumani tarixi muzeyi bo'limini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni asosida Forish tumani hokimligi va Jizzax viloyati o'lkashunoslik muzeyi rahbariyatining o'lkashunoslik muzeyining Forish tumani tarixi bo'limini tashkil etish taklifi ma'qullandi. Natijada viloyat o'lkashunoslik muzeyining yana bir bo'limi tashkil etilib, viloyat o'lkashunoslik muzeyining Forish tumani bo'limiga 6 kishidan iborat xodimlar sharti tasdiqlandi. Forish tumani hokimining amaliy ko'magi bilan muzeyga bino ajratilib, ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi belgilab berildi hamda o'lkashunoslik muzeyini tashkil etish, eksponatlar yig'ish, jihozlash ishlarida viloyat madaniyat ishlari boshqarmasining ishtiroki belgilab berildi [10; 25-b]. Bu muzeyning tashkil etilishi o'lkashunoslik muzeyi faoliyatining kengayishiga va muzey fondida viloyat tarixiga oid boy moddiy va ma'naviy boyliklarning jamlanishiga asos bo'ldi. Shuningdek, bu davrda muzeylar faoliyatini yaxshilashga hamda rivojlantirishga doir hukumat qarorlari ham soha rivojiga xizmat qildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1994-yil 23-dekabrda 618-sonli qaroriga asosan Jizzax viloyati muzeylarida saqlanayotgan muzey boyliklarini ro'yxatga olish, jamlash va saqlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga ishlab chiqildi. Muzey ishlarini takomillashtirishning 1995–2000-yillarga mo'ljallangan dasturi hamda 1995–2000-yillarda ta'mirlanadigan va yangidan quriladigan viloyat muzeylari ro'yxati shakllantirildi. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining viloyat bo'limiga Ma'naviyat va ma'rifat markazining viloyat bo'limi bilan hamkorlikda viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlar va mehmonlarni muzeylar va tarixiy joylar bilan tanishtirish ishlarini tashkil etish vazifalari belgilab berildi [11; 4–5-b]. Bu qaror natijasida muzeyga tashrif buyuruvchilar soni ortib bordi hamda Jizzax vohasi xalqlarining qadriyatlarini, boy tarixini, mustaqillik odimlarini o'zida aks ettiruvchi noyob eksponatlar bilan boyib borishiga asos bo'ldi. Hukumat qarorlari va viloyat hokimining farmonlari asosida viloyat hududidagi muzeylar faoliyati takomillashib, ularning keyingi davrdagi faoliyati ham rivojlanib bordi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muzeylar xalqlar tarixi ko'z gusidir. Ular kelajak avlod qalbida faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otadigan maskanlar hisoblanib, yoshlarni madaniy, tarixiy va badiiy merosimiz hamda umumbashariy qadriyatlarimiz bilan tanishtirishda, ularda ona Vatanga sadoqat tuyg'usini yuksaltirishda yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, mustaqilligimizning dastlabki davrlaridayoq buyuk tariximizni avlodlarimizga to'laligicha yetkazib berishga xizmat qiladigan ma'rifiy maskanlar bo'lmish muzeylar faoliyatiga e'tibor kuchayib, respublikamizning barcha hududlarida yangi muzeylar tashkil etildi, ularning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, bu davrda Jizzax viloyatida ham muzey faoliyati takomillashib, viloyat o'lkashunoslik muzeyining joylarda bo'limlari tashkil etildi. Viloyat hokimligining farmonlari muzeylar faoliyatining keyingi rivoji uchun asos bo'ldi. Muzeylar yangi eksponatlar bilan boyib, hudud tarixini, ajdodlarimizning boy merosini, san'atini hamda ma'naviyatini aholiga yetkazuvchi madaniyat maskanlari bo'lib xizmat qila boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jizzax davlat tarixi va madaniyati davlat muzeyi joriy arxivi. – 2026-yil.
2. Jizzax viloyat arxivi. – Fond 448, ro'yxat 8, yig'ma jild 57, b. 1.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (975-son, 2017-yil 11-dekabr) // Lex.uz. – 2017-yil 12-dekabr. – URL: Lex.uz
4. Toshboyev F. E. Muzeyshunoslik: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022. – B. 15–16.
5. Jizzax viloyat arxivi. – Fond 448, ro'yxat 1, yig'ma jild 22, b. 291.
6. Jizzax viloyat arxivi. – Fond 448, ro'yxat 1, yig'ma jild 27, b. 73.
7. Jizzax viloyat arxivi. – Fond 448, ro'yxat 3, yig'ma jild 25, b. 95.
8. Jizzax viloyat arxivi. – Fond 448, ro'yxat 3, yig'ma jild 27, b. 26.
9. Toshboyev F. E. Muzeyshunoslik: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022. – B. 15–16.
10. Jizzax viloyat arxivi. – Fond 448, ro'yxat 8, yig'ma jild 57, b. 25.
11. Jizzax viloyat arxivi. – Fond 448, ro'yxat 9, yig'ma jild 6, b. 4–5.